



UDK: 327(560:5-191.2):338.1

Shavkat BOYXONOV,

*Siyosatshunos: tizimli tahlilchi Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'qituvchi,
M. Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: boyxon.burgut@bk.ru ORCID ID: 0009-0004-4946-8912*

O'zbekiston Xalqaro islomshunoslik akademiyasi professori v.b., siyosiy fanlar doktori (DSc), F.Qo'ysinova taqrizi asosida

TURKEY'S EXPANSION IN CENTRAL ASIA AND ITS ECONOMIC POLITICAL PRIORITIES

Annotation

Relations between Turkey and the countries of Central Asia (CA) are distinguished by their consistency, multifaceted nature, and mutual geopolitical interest. The Concept of Turkish Foreign Policy Activity provides information on the main directions of cooperation with the countries of Central Asia.

Key words: central asian region, central asia, south asia and middle east, TRACECA, TANAP, SCO, economic cooperation, mutual trade, regional security, central governance, economic and political relations, geostrategic plan, middle corridor, diversification, soft power.

ЭКСПАНСИЯ ТУРЦИИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ЕЕ ЭКОНОМИЧЕСКО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРИОРИТЕТЫ

Аннотация

Отношения между Турцией и странами Центральной Азии (ЦА) отличаются своей последовательностью, многогранностью и взаимной геополитической заинтересованностью. Концепция внешнеполитической деятельности Турции содержит информацию об основных направлениях сотрудничества со странами Центральной Азии.

Ключевые слова: центральноазиатский регион, центральная Азия, южная Азия и ближний восток, ТРАСЕКА, TANAP, ШОС, экономическое сотрудничество, взаимный товарооборот, региональная безопасность, центральное управление, экономико-политические отношения, геостратегический план, средний коридор, диверсификация, мягкая сила.

TURKIYANING MARKAZIY OSIYODAGI IQTISODIY-SIYOSIY EKSPANSIYASI VA UNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Annotatsiya

Turkiya va Markaziy Osiyo (MO) davlatlari o'rtasidagi munosabatlar o'zining izchilligi, serqirraligi hamda o'zaro geosiyosiy manfaatdorligi bilan ajralib turadi. Turkiya tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasida Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik asosiy yo'nalishlariga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy osiyo mintaqasi, markaziy osiyo, janubiy osiyo va yaqin sharq, traseka, tanap, shht, iqtisodiy hamkorlik, o'zaro tovar aylanmasi, mintaqaviy xafvsizlik, markaziy boshqaruv, iqtisodiy-siyosiy munosabatlar, geostrategik reja, o'rta yo'lak, diversifikatsiya, yumshoq kuch.

Kirish. Bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari ham mintaqada turli sohalarida hamkorlik jarayonlari jadal rivojlanib borayotgan sharoitda Turkiya bilan aloqalarni yanada kuchaytirishga harakat qilmoqda. Ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyo davlatlari Turkiya bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni kuchaytirish bilan birga madaniy-gumanitar va harbiy sohalaridagi aloqalarni rivojlantirmoqda. Shu sababli, umumiy va milliy manfaatlar kesimida Turkiya Markaziy Osiyo davlatlari uchun asosiy hamkor hisoblanmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Turkiya tashqi siyosiy strategiyasida Markaziy Osiyo mamlakatlari muhim o'rin egallab kelmoqda. 1990-yillarda AQSh Turkiyaning MO mintaqasi davlatlari bilan siyosiy va harbiy hamkorligini rivojlantirishni qo'llab-quvvatladi va bu yerda Rossiya hamda Eronning ta'sirini kamaytirishda Turkiyaga ko'maklashdi degan fikrlarni ilgari surgan [1].

Shuningdek, Anqara o'sha davrda Markaziy Osiyo davlatlariga Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti va Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lishiga yordam ko'rsatish boshqa mintaqalarga nisbatdan muhim yo'nalish ekanligi aytib o'tgan [2].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Markaziy Osiyo davlatlari mustaqilligining dastlabki yillarida

Turkiyaning bozor iqtisodiyotiga o'tish modeli mintaqada davlatlari orasida mashhur bo'lgan edi. Shuning uchun ham, Turkiya bu mintaqada turk modeli asosida siyosiy va iqtisodiy tuzumni yaratishga harakat qildi. Turkiya andozasi orqali davlatchilik qurish bu hududda rasmiy Anqaraga moyil kuchlarning vujudga kelishiga va istiqbolda bu mintaqani o'z ta'sir doirasiga olishiga imkon yaratardi.

Bundan tashqari, Turkiya Sobiq Ittifoqning turkiy zamon davlatlariga kirib kelishida islom dini ham ta'sir ko'rsatdi. Rasmiy Anqara turli yo'llar bilan MO davlatlariga islom dini orqali ta'sir qilishga kirishdi.

Shu bilan birga, Turkiya va Markaziy Osiyo davlatlari aloqalarining savdo, investitsiya, transport, ta'lim, kadrlar tayyorlash, madaniy, harbiy yo'nalishda faol olib bormoqda. Bunga quyidagi omillarni keltirib o'tish lozim.

Turkiya mintaqani o'z ta'sir doirasiga olish maqsadida panturkizm va panturonizm g'oyalari yoyishga harakat qildi. Turkiyaning panturkizm g'oyasidan maqsadi turkiy tilli davlatlar ittifoqini tuzish va uni Turkiya boshqarishi kerak edi. Ammo G'arb tahlilchilari tomonidan Turkiya oliy rahbariyatining ushbu xatti-harakatlari hamda panturkizm g'oyasi utopik g'oyalar sifatida e'tirof etildi [3].

Turkiyaning panturkizm g'oyalari negizida MO davlatlari hududi ham kiradigan, turklar boshchiligidagi xalifalikka o'xshash davlat qurish singari chiqishlari bilan mamlakatda o'z mavqeini mustahkamlamoqda. Panturkizmning asosiy g'oyasi - barcha turkiy xalqlarni etnik yoki diniy-etnik asosda yagona imperiyaga birlashtirishdir.

Bugungi kunga kelib, turk siyosatchilari tomonidan ilgari surilayotgan va Turkiyaning MO mamlakatlaridagi tashqi siyosatining konsepsiyasi "Neosmonizm" g'oyalariga asoslanib, bunda ham Markaziy Osiyoni o'z ta'siriga olish maqsadi mavjud [4].

Turkiya OAVlari bu borada asosiy e'tiborni turkiy millatlarning madaniy va tillarining yagonaligiga qaratadi. Turkiya va MO davlatlari madaniy hamkorligining rivojlanishi natijasida turk rahbariyati tomonidan ulkan turk dunyosini yuzaga kelishi va u Adriatika dengizidan to Buyuk Xitoy devorigacha bo'lgan hududni egallaydi, degan g'oya ilgari suriladi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyoda 4 ta asosiy mintaqaviy aktor mavjud bo'lib, Xitoy hozirgi vaqtda mintaqaga iqtisodiy ta'sir ko'rsatadigan "katta o'yin" ning ishtirokchilaridan biridir.

Shuningdek, Kaspiy dengiziga kirish imkoniga ega va havzaning tabiiy resurslaridan foydalanadigan Eron nafaqat uglevdorod resurslariga boyligi, balki o'z qo'shnilari bilan etnomadaniy aloqada bo'lib, asosan Tojikistonda siyosiy jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Qolaversa, Rossiya mintaqa davlatlari bilan MDH, KXShT, YeOII, ShHT kabi xalqaro tashkilotlar darajasida hamkorlik qilmoqda. Rus ta'siri mintaqadagi davlatlarda jamiyat va siyosiy jarayonlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Mintaqa davlatlari bilan tarixiy, til, diniy va madaniy aloqalarda o'xshashliklarga ega bo'lgan Turkiya esa "katta o'yin"ning yangi ishtirokchisidir [5].

Geosiyosiy jihatdan Turkiya MOdagi ta'sir uchun kurashda avvalo Rossiya bilan, keyingi o'rinlarda Xitoy va Eron bilan to'qnashadi. O'tgan asrning 90-yillaridagi qisqa tanaffusdan so'ng mintaqaga Rossiyaning qaytishi Turkiyaning imkoniyatlarini chekladi. Bugungi kunda, Moskva va Anqara MDH makonida Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari uchun raqobatlashmoqda. Markaziy Osiyoda Xitoy omilining o'sishi, jumladan, Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT)ning tuzilishi Turkiya imkoniyatlarini yanada qisqartirdi. Anqaraning iqtisodiy zaifligi va Markaziy Osiyo davlatlarining Turkiya ta'siriga tushib qolishni xohlamaganliklari Turkiyaning maqsadlariga to'sqinlik qildi.

Turkiya MO davlatlaridan geografik jihatdan uzoq bo'lganligi, hamda mintaqada Rossiyaning siyosiy ta'siri va Xitoyning iqtisodiy ta'siri bilan raqobat qila olmaydi. Anqara mazkur davlatlarga muqobil ravishda asosan "yumshoq kuch" bo'lgan madaniy hamkorliklar, maxsus ta'lim muassasalarini qurish va ularni moliyalashtirish, shuningdek, o'zining kino, musiqa va adabiyotini targ'ib qilishi mumkin.

Turkiya ommaviy madaniyati mahsulotlari - musiqa, kino, teleseriallar MO davlatlari rasmiy vakillari tomonidan davlat telekanallarida ularga ruxsat bermagan bo'lsa ham mintaqa davlatlarida doim ishtiroq bilan qabul qilingan [6].

Bugungi kunda Turkiya tashqi siyosatida ham yetarlicha aniq qarashlar mavjud emas. Xususan Rossiya bilan Turkiya so'nggi mojaroli vaziyatlarni unutishga urinayotgan bo'lsa-da, mutaxassislar hali xam muammolar to'la hal qilinmagan deb hisoblaydi. Biroq, Rossiya Turkiyadagi davlat to'ntarishiga urinishdan foydalanib, Anqarani G'arbdagi ittifoqchilaridan voz kechib, Moskva boshchiligidagi harbiy ittifoqqa qo'shilishi uchun harakat qilmoqda [7].

Anqaraning Yevropa Ittifoqi va AQShga nisbatan pozitsiyasi esa umuman aniq emas. Anqara ShHTga a'zo

bo'lish istagini e'lon qilib so'nggi ikki tashkilotning kuzatuvchi davlat sifatida ishtirok etib, Xitoyning yangi tashabbusiga qiziqish bildirgan bo'lsa-da, uning Xitoy bilan munosabatlariga ham aniq baho berish qiyin.

2016 -yilning iyul oyida Turkiyaning amaldagi hukumatiga qarshi harbiylar tomonidan amalga oshirilgan davlat to'ntarishidan so'ng mamlakatda Nurchilar siyosiy oqimi faoliyati to'xtatildi. Oqibatda Turkiya tashqi siyosatida Markaziy Osiyoga nisbatan qarashlar tizimining yangi davri boshlandi [8].

2017 -yilda esa Turkiyaning MO mintaqasida o'z ta'sir darajasini oshirish strategiyasi taqdim etildi. Mazkur strategiyada o'zaro hamkorlikning yo'nalishlari sifatida Turkiya tomonidan moliyalashtiriladigan maktablar, turk kengashi va harbiy hamkorlik ko'rib chiqildi.

Bundan tashqari, Turkiya 2019 -yildan boshlab prezidentlik Respublikasi bo'lganidan keyin, mintaqaviy kuch bo'lishga harakat qilmoqda.

Tahlillarga ko'ra, Turkiya Markaziy Osiyoda iqtisodiy, demografik, geografik va harbiy imkoniyatlari tufayli O'zbekistonga asosiy e'tiborni qaratmoqda. Shuning uchun, O'zbekistonga Turkiya tomonidan yangidan qiziqish bildirilib, mazkur davlat Turkiyani mintaqadagi geostrategik rejalarini qayta ko'rib chiqishga majbur qildi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy imkoniyatlari oshib borar ekan, Turkiya iqtisodiyoti eksportga yo'naltirilganligi sababli, MO davlatlarini o'z mahsulotlariga importchi sifatida o'rmoqda. Qolaversa, Anqara Markaziy Osiyo davlatlaridan neft va gaz resurslarini import qilishdan ham manfaatdor hisoblanadi [9].

Anqaraning asosiy geosiyosiy manfaatlaridan yana biri Markaziy Osiyo mintaqasida Turkiya orqali ochiq dengizga chiqadigan transport koridorini qurish, bu borada Boku va Tbilisi orqali o'tadigan TRASEKA loyihasini keltirish mumkin.

Qolaversa, Turkiya uchun Markaziy Osiyo o'z tovarlarini sotishda bozor rolini ham o'ynadi. Yevropadagi raqobatga dosh berolmayotgan Turkiya tovarlari uchun Markaziy Osiyo qulay bozor hisoblanadi [10].

Shuningdek, Turkiya Yevroosiyoning "energiya birjasi" bo'lishga intilib, sharqdan g'arbga boradigan energiya oqimlarini kuchli manopoliya, buning yaqqol namunasi sifatida yiliga 50 mln tonna neft yetkazib beradigan Boku-Tbilisi-Jeyxan quvurini ishga tushirganini aytilish mumkin [11].

Shu bilan birga, Turkiya MO davlatlari va Xitoy ishtirokida transport va logistika loyihalarini amalga oshirishdan manfaatdor. Ulardan biri Boku-Tbilisi-Kars temir yo'li bo'lib, Anqara bu yo'l orqali Buyuk Ipak yo'llari tarmog'idan biriga aylanmoqchi. Qolaversa, Turkiya orqali Ozarbayjondan Yevropaga o'tuvchi Trans-Anatoliya gaz quvuri (TANAP) loyihasida mintaqa davlatlarining ishtiroki ancha istiqbolli ko'rinadi. Shuningdek, Transkaspiy gaz quvuri orqali turkman gazini Turkiya orqali Yevropaga yetkazish loyihalarini ham mavjud [12].

Turkiyaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi strategik manfaatlarini amalga oshirishdagi vazifalari bir nechta yo'nalishga ega. Jumladan, g'oyaviy-siyosiy yo'nalishda: panturkizm g'oyasini ilgari surish, yangi turkiy islom olamini qurish, turkiy tilli davlatlar kengashiga a'zolarni kiritish va unda yetakchilik qilish, markaziy Osiyoda yetakchi davlatlar ta'sirini cheklash va ShHTga boshqacha formatda a'zo bo'lish.

Iqtisodiy yo'nalishda - turk tovarlarini eksport qilish uchun bozor, arzon ishchi kuchidan foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarish, iqtisodiyotning yirik tarmoqlarida monopollikni qo'lga kiritish, MOdan Yevropa bozorlariga to'g'ridan-to'g'ri kirish imkonini beradigan Rossiyadan

alohida yagona energiya havzasini yaratish va mintaqaning transport-logistika imkoniyatidan foydalanish.

Madaniy-gumanitar yo'nalishda – Turkiya madaniyati va urf-odatini yo'yish, turk madaniy markazlari faoliyatini kuchaytirish va turk media makonini kengaytirish.

Energetika va transport–Markaziy Osiyo Turkiya uchun energetik jihatdan muhim – gaz va neft resurslari, energetik marshrutlarni diversifikatsiya qilish, yevropaga chiqish yo'llari.

So'nggi yillar oralig'ida ikki davlat rahbarlarining, shuningdek, davlat vazirliklari rahbarlari va delegatsiyalarining ko'plab uchrashuvlari o'tkazildi. Bu uchrashuvlar davomida munosabatlarni rivojlantirish bo'yicha ko'plab kelishuvlarga erishildi.

Shuningdek, 2017-yilda ikki davlat rahbarlari Pekin, Ar-Riyod, Ostona va Nyu-Yorkdagi xalqaro tadbirlar doirasida muzokaralar o'tkazdi, hamkorlik istiqbollari va xalqaro vaziyatlarni muhokama qildi. Bugungi kunda ikki davlat o'rtasidagi aloqalar barcha sohalarida izchillik bilan rivojlanib bormoqda. 2019-2025-yillarda o'zaro savdo aylanmasi 1,2 mlrd dollardan 2,8 mlrd dollarga oshgan, Yaqin sharq va Eron-Isriol munosabatlaridagi geosiyosiy taranglik bu raqamlar yanada ko'proq bo'lishiga biroz to'sqinlik qildi. Shunga qaramasdan Davlat rahbarlarining uchrashuvlari davomida yaqin yillar ichida savdo hajmini 5 mlrd dollarga yetkazishga kelishuvlar mavjud [13].

Toshkent va Samarqand shaharlaridan Istanbul hamda Anqara shaharlariga doimiy aviaqatnovlar yo'lga qo'yilganligi, turk sayyohlari uchun vizasiz tartibning qo'llanilishi, Turkiya va O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida talabalar almashinishining yo'lga qo'yilayotganligi o'zaro hamkorlik aloqalarining faol rivojlanayotganligini ko'rsatadi.

Hozirda davlatlar o'rtasidagi siyosiy muloqotlar o'tkazishda Oliy darajadagi O'zbekiston – Turkiya strategik hamkorlik kengashini o'rnini alohida qayd etish lozim.

Kengash o'z faoliyatini O'zbekiston va Turkiya Prezidentlari hamraisligida olib boradi. Siyosat, xavfsizlik va mudofaa, savdo va iqtisodiyot, investitsiya, turizm, energetika, transport va tranzit, qishloq va o'rmon xo'jaligi, madaniyat, ta'lim, fan va texnika, innovatsiyalar, sog'liqni saqlash va boshqa o'zaro manfaatli sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish strategiyasini belgilaydi [14].

Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston va Turkiya hukumatlararo komissiyasi hamraislari erishilgan natijalar to'g'risida Strategik hamkorlik kengashiga doimiy axborot kiritib boradi. O'zbekiston tashqi ishlar vazirligi va Turkiya tashqi ishlar vazirligi kengashning muvofiqlashtiruvchi organlari hisoblanadi [15].

Bugungi kunda O'zbekiston va Turkiya siyosiy muloqotlari ko'p tomonlama o'tkaziladigan asosiy tashkilot bu – Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashidir. Bu tashkilot 2009-yil 3-oktabrda Ozarbayjonning Naxichevan shahrida tuzilgan bo'lib, dastlab unga Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston va Qirg'iziston a'zo edi. 2019-yil 14-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashini tuzish to'g'risidagi Naxichevan bitimini ratifikatsiya qildi.

O'zbekistonning mazkur tashkilotga qo'shilishini barcha turkiy mamlakatlar, avvalo, Turkiya Respublikasi qizg'in qo'llab-quvvatladi. Shu tariqa mamlakatlarimiz uchun yana bir xalqaro tuzilma doirasida ikki va ko'p tomonlama hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston rahbariyati tomonidan Turkiy tilli davlatlar kengashi doirasidagi tuzilmalardan biri bo'lgan Turkiy tilli davlatlar Parlament assambleyasiga a'zo bo'lib kirish masalasi muhokama qilinmoqda.

Ta'kidlash lozimki, so'nggi 10 yillikda Turkiya barcha sohalarida rivojlanishga erishdi va dunyo siyosatida o'z so'ziga ega davlatlardan biriga aylandi. Bu esa davlatning o'z oldiga katta ambitsiyalarni qo'yishiga sabab bo'lmoqda. Turkiya tarix, til, din va madaniyatning yaqinligi sababli Markaziy Osiyo davlatlarida o'z ta'sir doirasini oshirish va bu mintaqada yirik loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirgan. Bu maqsadda Turkiya O'zbekiston bilan munosabatlarni yanada rivojlantirishni istaydi. Chunki ular mintaqada o'z rejalarning barchasini amalga oshirish uchun rasmiy Toshkentning ko'magi zarurligini yaxshi angelaydi.

Xulosa va takliflar. Turkiyaning mintaqaviy davlatdan global darajadagi davlat maqomiga erishishida MO mintaqasi muhim rol o'ynaydi. Turkiyaning 1990-yillardan boshlangan MO mintaqasida aktor bo'lishga intilishlari haligacha davom etmoqda. Bu maqsadlarga erishish uchun Turkiya o'ziga “panturkizm” va “neousmonizm” g'oyalarni asos qilib olgan. Biroq, Turkiya mazkur mintaqaga o'rtnashib olishi uchun Rossiya, Xitoy va Eron davlatlarining faol qarshiligiga uchraydi. Shunday bo'lsa-da, Turkiya MO mintaqasini qo'ldan chiqarmaslik uchun “yumshoq kuch” dan foydalanib kelmoqda.

Turkiyaning Markaziy Osiyodagi faolligi klassik hududiy ekspansiya emas, balki ko'p o'lchamli geosiyosiy, geoiqtisodiy va madaniy ta'sir strategiyasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu siyosat pragmatik manfaatlar, tarixiy-madaniy yaqinlik hamda zamonaviy global kuchlar muvozanati bilan uyg'unlashgan holda shakllanmoqda.

Turkiyaning Markaziy Osiyodagi “ekspansiyasi” – bu hududiy kengayish emas, balki ta'sir makonini kengaytirishga qaratilgan kompleks strategiya bo'lib, u geosiyosiy raqobat, iqtisodiy integratsiya va madaniy diplomatiya o'zaro kesishgan maydonda rivojlanmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Esanov J.U. Bugungi kunda Turkiya tashqi siyosiy strategiyasining o'ziga xosligi. Diss. –T., O'z.R. STIBOM, 2015.- 63-81 b;
2. Нурсултанова Л. Интересы Турции в Центральной Азии. // Международный электронный научный журнал// edu.e-history.kz № 4(20) 2019;
3. Human Antony. Power and politics in Central Asia s new republics. London, Research institute for the study of conflict and terrorism. 1994y. 324p.
4. Муминов А. Какие интересы преследует Турция в Казахстане и Центральной Азии? <https://camonitor.kz/15.05.2018y>.
5. Джакупов Т. Центральная Азия во внешнеполитической концепции Турции. научной статьи. <https://cyberleninka.ru/article/n/sentralnaya-aziya-vo-vneshnepoliticheskoy-kontseptsii-turtsii>. 2018;
6. Муминов А. Какие интересы преследует Турция в Казахстане и Центральной Азии? <https://camonitor.kz/15.05.2018>.
7. Рустамов И.И. Взаимодействие России и Турции в регионе Средней Азии // Теории и проблемы политических исследований.//2018. Том 7. № 4А. С. 106-116;
8. Axmedov A.A. Turkiyadagi ichki siyosiy muammolar va ularning mintaqadagi vaziyatga ta'siri. Diss. –T., O'z.R. STIBOM, 2017 - 51-60 b
9. Рустамов И.И. Взаимодействие России и Турции в регионе Средней Азии // Теории и проблемы политических исследований.

- исследований // 2018. Том 7. № 4А. С. 106-116;
10. Кушкумбаев С.К. Турция и Центральная Азии: поиск оптимальной модели взаимодействия. // Материалы международной научной конференции. –Алматы. 2006. –С. 175.
 11. Джакупов Т. Центральная Азия во внешнеполитической концепции Турции. научной статьи. <https://cyberleninka.ru/article/2018>;
 12. Шустов А. Турция активизирует тюркский фактор в Центральной Азии. <https://www.ritmecurasia.org>;
 13. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo faoliyatining 2019 -yil yakunlari. // O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining ramiy saytiyu <https://mift.uz/uz/news/uzbekiston-respublikasi-tashi-savdo-faolijatining-2019-jil-jakunlari>. 16.01.2020.
 14. O'zbekiston – Turkiya: Oliy darajadagi strategik hamkorlikning yangi bosqich. // O'zbekiston milliy axborot agentligi. <https://uza.uz/uz/posts/-zbekiston-turkiya-oliy-darazhadagi-strategik-amkorlikning-ya>. 20.02.2020.
 15. O'zbekiston – Turkiya munosabatlari tarixida yangi muloqot formati. // “Xalq so‘zi” gazetasi. <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-turkiya-munosabatlari-tarikhida-yangi-muloqot-formati>. 19.02.2020.
 16. O'zbekiston-Turkiya: O'zaro ishonch va do'stlikka asoslangan hamkorlik jadal rivojlanmoqda. // O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi qoshidagi Diplomatik korpusga xizmat ko'rsatish byurosi rasmiy sayti. <http://www.ddsmfa.uz/uz/ozbekiston-turkiya-ozaro-ishonch-va-dostlikka-asoslangan-hamkorlik-jadal-rivojlanmoqda>